



Green University



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT EKOLOGIY, ATROF MUHITNI MUHOFAZA
QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI BOSHQARMASI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATROF MUHIT VA
IQLIM O‘ZGARISHINI O‘RGANISH UNIVERSITETI
KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI
TYUMEN DAVLAT UNIVERSITETI
M. AKMULLA NOMIDAGI BOSHQIRDISTON DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
UI GREENMETRIC – XALQARO REYTING AGENTLIGI

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA
EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR
MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUM

MATERIALLARI



BUXORO – 2023

**“IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA EKOSISTEMASI:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUMNING**

DASTURIY QO‘MITASI TARKIBI:

Xamidov O.X.	Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., prof.
Rasulov T.H.	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d. (DSc), prof.
Jo‘raev A.T.	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n., dots.
Umarov M.A.	Buxoro viloyat Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i
Salixov J.	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti - Green University, i.f.d., prof.
Tolstikov A.	Tyumen davlat universiteti birinchi prorektori
Bolshanik P.V.	Omsk davlat pedagogika universiteti dotsenti, i.f.f.d.
Ulengov R.A.	Kazan federal universiteti kafedra mudiri, g.f.n., dots.
Latipova Z.	Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti dotsenti, g.f.n.
Xolov Y.D.	Ekologiya va geografiya kafedrasini mudiri, b.f.f.d. (PhD), dots.

TASHKILY QO‘MITASI TARKIBI:

Rasulov T.H.	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d. (DSc), prof.
Niyozov E.D.	Tabiiy fanlar faklteti dekani, t.f.n., dots.
Yavmutov D.Sh.	Iqtisodiyot va turizm faklteti dekani, i.f.f.d. (PhD), dots.
Nurov Z.S.	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshligi, i.f.f.d. (PhD)
Xolliev A.E.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, b.f.d.
Haitov Y.Q.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, g.f.d.
Toshov X.R.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.n
Norboeva U.T.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori, b.f.d.
Ergasheva M.K.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
Halimova G.S.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.f.d. (PhD)
Boltaeva Z.A.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti b.f.f.d. (PhD)
Qodirov A.A.	Ekologiya va geografiya kafedrasini katta o‘qituvchisi
Nematov A.N.	Ekologiya va geografiya kafedrasini katta o‘qituvchisi
Ataeva R.O.	Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi kafedrasini dosenti, g.f.f.d. (PhD),

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Labi hovuz, Bolo hovuz hamda qadimgi suv inshootlari talaba yoshlarni suv ilmiga bo'lgan dunyoqarashini rivojlantirishda dasturi-amal bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Tarixiy suv inshootlarini kelgusi avlodlar uchun ko'z qorachig'idek asrashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Azimov. O'zbekistonda suvdan foydalanish an'analari va zamonaviy yondashuvlar. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent-2015.
2. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent "Sharq mash'ali" jurnaliga ilova "Sharq bayozi" 1993.
3. A.Nizomov, G.Rahimova, N.Rasulova. Toponimika. (o'quv qo'llanma). "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2013.
4. A.R.Rasulov, F.Q.Hikmatov. "Umumiy gidrologiya". Toshkent "Universitet" 1996-yi.
5. Buxoro sharq durdonasi. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent-1997.
6. Qorayev Suyun. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
7. S.Qudratov., Sardobalar o'lkasi, Toshkent, 2001.
8. Suv O'zbekiston kelajagi uchun muhim hayotiy resurs. O'zbekiston nashriyoti, Toshkent-2007..
9. V.L.Shuls va R.Mashrapov. O'rta Osiyo gidrografiyasi. "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent 1969-yil.
10. Sayyoh.com internet sahifasi.
11. Aniq.uz telegram kanali.
12. <http://www.advantour.com>

QULJUQTOV TIZMASIDA MAHALLIY SUV RESURSLARINING MAVSUMIY SHAKLLANISH QONUNIYATLARI XUSUSIDA

Halimova G.S. (BuxDU, geografiya fanlari falsafa doktori, dotsent)
Hamroeva M.Sh. (BuxDU 4-kurs talabasi)

Ichimlik va sug'orma suv muammosi O'zbekiston respublikasi uchun eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki respublikaning 70 foiz maydoni qurg'oqchil, ya'ni cho'l va chala cho'l zonasida joylashgan. Mahalliy suv manbalari esa suvga bo'lgan talabning atigi 18 fozini qondira oladi, xolos. (Suv O'zb. ... 2007).

Respublikaning suvga bo'lgan talabi asosan Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari hududidan kirib kelayotgan tashqi – Amudaryo, Sirdaryo suvlari hisobidan qondiriladi. Shu boisdan respublikamiz hududida mavjud bo'lgan mahalliy suv manbalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish davr talabidir.

Bu borada O'zbekistonning cho'l zonasida joylashgan past tog'larning mahalliy suv resurslarini o'rganish istiqbolli ahamiyatga ega. Shunday tog'lardan biri Quljuqtov tizmasidir.

Quljuqtog' tizmasi Buxoro va qisman Navoiy viloyatlariga tegishli bo'lib, Markaziy Qizilqumni egallab turgan past tog'lar guruhining eng janubiy bo'lagini tashkil qiladi. Tizma kengliklarga yaqin yo'nalishga ega. U sharq-janubi-sharqdan, g'arb-shimoli-g'arb yo'nalishi bo'ylab 120-130 km masofada cho'zilgan. Eng baland nuqtasi 785 metr. Ushbu hudud uchun asosiy suv manbai atmosfera yog'inlari hisoblanadi. Yog'inlar miqdorini kuzatish esa ikkita meteostanstiya xodimlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Birinchisi Jing'ildi meteostanstiyasi bo'lib, u tizmaning g'arbiy qismida Jing'ildi aholi manzilgohida, 209 metr mutlaq balandlikda joylashgan. Ikkinchisi esa tizmaning sharqiy chekkasida, Oyoqog'itma botig'ining shimoliy sohilida joylashgan Oyoqog'itma qishlog'ida joylashgan bo'lib, 184 metr mutlaq balandlikda o'rnatilgan.

Quljuqtov tizmasida mahalliy suv resurslarini shakllanishi qonuniyatlarini o'rganish maqsadida ushbu hududida va unga yondosh bo'lgan uchta meteostanstiyalarda qayd qilingan atmosfera yog'inlarining 68 yillik ma'lumotlari (1951-2018) tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra tizmaning g'arbiy qismida atmosfera yog'inlarining o'rtacha ko'p yillik miqdori 96 mm ga teng. Ushbu miqdor sharqiy qismiga tomon ortib boradi va Oyoqog'itma rayonida 133 mm ga etadi.

Atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishida keskin farqlanishlar bor. Yog'inlarning 34,9-35,7 foizgacha qismi qishda, 45,8-46,7 foizgacha bahorda, 3,9-4,0 foizgacha yoz oylarida, 12,8-13,7 foizgacha qismi esa kuzda yog'adi. Qish va bahorda oylaridagi yog'inlar umumiy miqdorning 81,8-82,6 foizgacha qismini tashkil qiladi (1-jadval). Bu esa Quljuqtov tizmasining asosiy suv manbai hisoblanadi.

1-jadval

Atmosfera yog'inlarining Quljuqtov tizmasi va unga yondosh erlarda o'rtacha mavsumiy taqsimlanishi (1951-2018 yillar bo'yicha) (sur'atda miqdori, mm; maxrajda % hisobida)

Meteostanstiyalar	Qish (XII-II)	Bahor (III-V)	Yoz (VI-VIII)	Kuz (IX-XI)	Yil davomida
Buxoro (h-225 m)	54,0	61,4	2,8	16,3	134,5
	40,1	45,7	2,1	12,1	100
Jing'ildi (h-209 m)	33,5	45,8	3,9	12,8	96
	34,9	47,7	4,0	13,3	100
Oyoqog'itma (h-184 m)	47,6	62,2	5,2	18,3	133,0
	35,7	46,7	3,9	13,7	100

Qayd qilish joizki, Quljuqtov yaylovzorlarining mahsuldorligi yillik yog'inlarning salkam ellik foizini tashkil qiladigan bahorgi yog'inlarning miqdoriga bog'liq. Ammo, bahorgi yog'inlar yillar davomida turlicha miqdorga ega bo'lib, aniq muddatli davriy qonuniyatlarga ega emas. Masalan, Jing'ildi meteostanstiyasi ma'lumotlariga ko'ra eng seryomg'ir hisoblangan mart oyida 2008 yilda yomg'irlar kuzatilmagan. 1981 yilda esa ushbu oyda bu ko'rsatkich 56,5 mm ni tashkil qilgan. Xuddi shunday keskinlikni Oyoqog'itma rayonida ham kuzatish mumkin. Bu erda 1979 yilning mart oyida yog'inlar kuzatilmagan bo'lsa, 1987 yilning ushbu oyida yog'inlar miqdori 96,1 mm ni tashkil qilgan (Halimova, 2014).

Xulosa o'rnida quyidagilarni qayd qilish o'rinli.

1. Quljuqtov tizmasi hududida atmosfera yog'inlarining 50 foiz atrofidagi qismi bahor oylarida sodir bo'ladi. Ushbu jarayon tufayli hosil bo'ladigan suvlarning bir qismi tuproqqa singadi va yaylovzor o'simliklarining hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Qolgan asosiy qismi esa vaqtinchalik kuzatiladigan suv toshqinlariga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida tizma etagidagi yo'l, ko'prik kabi infratuzilmalarga zararlar etkazadi va katta maydondagi tog'oldi yaylovzorlarni nobud qiladi.

2. Seryomg'ir bahor, iliq havo harorati bilan uyg'un bo'lgan yillar yaylov chorvachiligi uchun samarali bo'ladi va mayda tuyoqli chorva sonini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi.

3. Soylarida hosil bo'ladigan bahorgi suv toshqinlarini bartaraf qilish va tizmaning mahalliy suv imkoniyatlaridan rekreatsiya, turizm maqsadlarida samarali foydalanish uchun eng yirik soylar etagida kichik suv omborlarini qurish maqsadga muvofiqdir.

4. Tizmaning Kattasoy, Ponsoy, Churuqsoy etaklarida Gidrometeorologiya tizimiga tegishli bo'lgan kuzatuv maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Халимова Г.С., Кулжуктов тизмаси (Қизилкум) худудида атмосфера ёғинларининг кўп йиллик кўрсаткичлари хусусида. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 44-жилд. -Тошкент, 2014. - Б.119-122.
2. Сув Ўзбекистон келажаги учун энг муҳим омил. –Тошкент, 2007. –Б. 137.